

ISSN : 3030-3974

# MAKON VA ZAMON

Пространство и время  
Space and time

Nº4  
2025

# MAKON

## VA

# ZAMON

**ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,  
ma’naviy-ma’rifiy jurnal**

**2025/4 (№6)**

**M u a s s i s l a r:** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti  
va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*  
M.Abdullayeva, *s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O‘.Abilov, p.f.d., professor*  
*R.Choriyev, p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,*  
*i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d. – A.Ravshanov.*

**ISSN 3030-3974**

**Bosh muharrir – tahririyat rahbari:**  
Qiyom Nazarov – *f.f.d., professor*

**Nashrga tayyorlovchilar:**  
M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

**Tahririyat manzili:** Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,  
Toshkent shahri, 100000,  
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozzi. “Times” garniturasи.  
Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

## MUNDARIJA:

<b>Бош муҳаррир минбари</b>	Имом Бухорийнинг фалсафий қарашлари.....	4
<b>А.Маврулов</b>	Маданият феномени – Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт омили.....	7
<b>I.Axmedov</b>	Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar transformatsiyasini shakllantiruvchi omillar.....	11
<b>G.Ruzmatova</b>	Alisher Navoiy va Anthoni Sheftsberining go‘zallik va adolat tushunchalarining komparativistik tahlili.....	15
<b>S.Hasanova</b>	Foresight kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari roli.....	20
<b>Ш.Турдимов</b>	Кўнгилдин кўнгилга дарча бор... .....	24
<b>Х.Саломова</b>	Табиятни асраш – яшил иқтисодга йўналтирилган оқилона тараққиётнинг илк қадамидир.....	29
<b>K.Maxsudjonov</b>	Shaxs kamolotida ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarning tarixiy-falsafiy asoslari.....	33
<b>D.Kamilov</b>	Sinkretizm taksanomiyasi: nazariy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	38
<b>D.O‘rinboyev</b>	G‘arb mamlakatlarining strategemalar nazariyasiga doir falsafiy-tarixiy yondoshuvlari.....	43
<b>S.Karimov</b>	Raqamli dunyoda hayotiy maqsad paradigmalarining o‘zgarishi.....	48
<b>B.Uzokov</b>	Yangi O‘zbekiston: yangicha qadriyatlarning o‘ziga xos jihatlari.....	52
<b>Г.Нишонбоева</b>	Ўзбекистон ривожининг янги даври – маданият тараққиётининг муҳим асоси.....	56
<b>X.Xolmirzayev</b>	“Inson salohiyati” va “ong” tushunchalarining murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligi.....	60
<b>Г.Наврӯзова</b>	Экологик муаммолар ечимида оид манба.....	64
<b>Q.Kdirbayev</b>	Axborot asrida milliy qadriyatlarni himoya qilish zarurati.....	67
<b>Н.Хушвақова</b>	Социологияда блогосферага оид илмий ёндашувлар.....	71
<b>J.Taniqulov</b>	Media axborot tizimi orqali ta’lim madaniyatini yuksaltirish mexanizmlari.....	75
<b>X.Xidirov</b>	O‘rta asr G‘arb olamida korrupsiyaga qarshi kurashishning ahamiyati.....	78
<b>G.Niyetova</b>	Jadidlar ta’limotida O‘zbek oilasi funksiyalarini shakllantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar.....	81
<b>B.Mirzayev</b>	Shayboniy Malika Mexr Sulton Xonim faoliyati xususida mulohazalar.....	84
<b>D.Kulmuradov</b>	Bo‘lajak muhandislarni o‘qitish jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish: xorij tajribasi.....	87
<b>S.Ismoilov</b>	Tasavvuf komil inson haqida.....	92
<b>S.Abdullayev</b>	Globallashuv sharoitida sog‘lom turmush tarzi va milliy salomatlik qadriyatlari dialektikasi.....	95
<b>M.Soatova</b>	Sun’iy intellektning zamонавијајамиятга та’siri: imkoniyatlar, xavf-xatarlar va ijtimoiy transformatsiyalar.....	99

<b>K.Fayzullayeva</b>	O‘zbekistonda ayollar mehnati va gender tengligi: qonuniy mexanizmlar va ijtimoiy ahamiyati.....	103
<b>E.Raxmonov</b>	Ekologik ta’limda fanlararo integratsiyalashgan yondashuvlarning metodik asoslari.....	106
<b>B.Rashidova</b>	Milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning oila tarbiyasiga ta’siri.....	111
<b>S.Soliyev</b>	Rivojlangan davlatlarda yong‘in xavfsizligi madaniyatini shakllantirish modellari.....	115
<b>A.Abdulhayev</b>	Vatanparvarlik – harbiy xizmatchilarining ma’naviy qadriyati.....	119
<b>O.Abdusalomov</b>	Baxtlilikning milliy indekslari.....	123
<b>G.Raximboyeva</b>	Kasbiy ta’lim tizimida raqamlashtirish texnologiyasini takomillashtirish metodikasi.....	126
<b>B.Temirbaev</b>	Foundations and historical development of musicology: from ancient theories to modern integrations.....	130
<b>B.Adilov</b>	O‘zbekistonda tasavvufshunoslik ilmiy maktabi shakllanishida Najmiddin Komilov merosining ahamiyati.....	134
<b>M.Gafurova</b>	Gender tengligi: falsafiy g‘oyalarning tarixiy o‘zgarishi va zamonaviy oqibatlari.....	138
<b>M.To‘rabekova</b>	Sirdaryo viloyati jozibadorligining ayrim jihatlari.....	141
<b>H.Umarov</b>	Sharq va G‘arb madaniy paradigmalar – yoshlar madaniyatini rivojlantirish omili.....	144
<b>A.G‘aybullayev</b>	O‘zbekiston va Qozog‘iston respublikalarining madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorligining rivojlanish tarixi.....	148
<b>J.Yaxiyaev</b>	Umumta’lim maktablarida o‘quvchi yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalashda tarix fanining ahamiyati.....	151
<b>I.Axatov</b>	O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi madaniy aloqlarning rivojlanishi.....	154
<b>Sh.G‘aniyev</b>	O‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi.....	157
<b>Sh.Murzayeva</b>	O‘zbekistondagi milliy madaniy markazlarning ijtimoiy-siyosiy asoslari.....	161
<b>D.Alibekov</b>	Yoshlar innovatsion tafakkurini rivojlantirishning zamonaviy o‘qitish jarayonlaridagi o‘rni.....	164
<b>B.Davronov</b>	Sun’iy intellekt vositasida ijtimoiy institutlar faoliyatining raqamlashtirilishi va uning ma’naviy oqibatlari.....	167

## AXBOROT ASRIDA MILLIY QADRIYATLARNI HIMoya QILISH ZARURATI

**Qonisbay Kdirbayev**  
**“TIQXMMI” MTU katta o‘qituvchisi**  
**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada axborot asrida yuzaga kelayotgan raqamli globalizatsiya, internet va ommaviy madaniyatning milliy qadriyatlariga ta’siri tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Global makon, globallashuv jarayoni, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, oila qadriyati, yoshlar tarbiyasi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние цифровой глобализации, интернета и массовой культуры на национальные ценности, происходящее в век информации.

**Ключевые слова:** Глобальное пространство, процесс глобализации, национальные ценности, общечеловеческие ценности, ценность семьи, воспитание молодежи.

**Annotation.** This article analyzes the impact of digital globalization, the internet and mass culture on national values, which are emerging in the information age.

**Keywords:** Global space, the process of globalization, national values, universal values, family value, youth education.

XXI asr — axborot va raqamli texnologiyalar asri sifatida insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Globallashuv jarayonlari, internet tarmog‘ining kengayishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivoji inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda madaniy-ma’naviy meros, milliy qadriyatlar va urf-odatlarning ahamiyati yanada ortmoqda. Chunki axborot oqimining cheksizligi, turli madaniyatlarning aralashuvi va g‘oyaviy ta’sirlar milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy barqarorlikni saqlash jarayoniga ham ijobjiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy poydevori, ijtimoiy birdamligi va madaniy barqarorligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biridir. Axborot asrida ularni himoya qilish nafaqat madaniy-ma’naviy masala, balki milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Zero, milliy qadriyatlarning yo‘qolishi yoki o‘zgarishi jamiyatning ma’naviy ildizlariga putur yetkazishi, yosh avlodning dunyoqarashi va hayotiy tamoyillariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois bugungi kunda global axborot makonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamonaviy sharoitga mos tarzda rivojlantirish va yoshlar ongiga singdirish dolzarb vazifa sifatida kun tartibida turibdi. Bu jarayonda nafaqat davlat siyosati va ta’lim tizimi, balki OAV, ijtimoiy tarmoqlar, ijodiy muhit va butun jamoatchilikning hamkorligi muhim o‘rin tutadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan jadal islohotlar va keng ko‘lamli yangilanishlar natijasida insonlar hayoti va turmish tarzi o‘zgarib, jamiyatimizda o‘ziga xos tafakkur, yangicha dunyoqarash shakllanmoqda. Jumladan, o’tkan yillar davomida jamiyatimizning barcha jabhalarida bosqichma-bosqich va tadrijiy amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida yurtimizda mutlaqo yangi jamiyat barpo etilmoqda.

Har bir millat, xalq, o‘zining asrlar davomida shakllangan azaliy urf-odatlari, madaniyati va milliy qadriyatlari ega. Bugungi globallashuv va axborot xuruji keng tarqagan davrda, avlodtan-avlodga voris sifatida yetib kelayotgan bu kabi qadriyatlarni kelajak avlodga bezavol yetkazib berish hozirgi kunning dolzarb bir vazifasiga ayylanib qolayotganday go‘yo.

Barchamizga ayonki, XXI asr dunyo hodisasida fenomenal o‘zgarishlarga boy voqelik sifatida nomoyon bola boshladi. Ilmiy-texnikaviy, texnologik va iqtisodiy rivojlanish shu darajada taraqqiy toptiki, biz buni insoniyat tarixidagi erishilgan misli ko‘rilmagan “mo‘jiza”

deyishimiz mumkin. Natijada axborot ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotning muhim omiliga aylandi. Ayni damda esa uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati chak-shubhasiz tobora ortib bormoqda.


Axborot nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan amerikalik muhandis olim K.Shennon axborot tushunchasiga “oydinlashgan mavhumlik”, - deya ta’rif beradi. Buning ma’nosи shundaki, inson axborotni qabul qilishi natijasida ilgari o‘zi uchun mavhum bo‘lgan narsalarni anglaydi va yangi bilimlar bilan tanishadi.

Lekin masalaning ikkinchi tomoni ham borki, aynan bugungi globallashuv davrida bu kabi o‘zgarishlarning ro‘y berishi muayyan darajada ma’naviy-axloqiy inqirozni keltirib chiqarmayapdimi? Ma’lum bir millat, elat yoki xalqlarga xos bo‘lgan madaniyatlarning yemirilishi yoxud asrdan-asrga, avlodtan-avlodga voris bo‘lib kelayotgan qadriyatlarning toptalishiga, ularning yo‘q bo‘lishiga olib kelmaydими? Umuman bu kabi masalalar umuminsoniy qadriyatlar doirasiga va milliy qadriyatlarimizning andozalariga nechog‘lik mos keladi?

Barchamizga ayonki, bugungi axborot asri o‘zining ijobiy tomonlari bilan birga, salbiy jihatlarini ham namoyon etmoqda. Global makonda ommaviy axborot vositalarining kuchli ta’siri natijasida ommaviy madaniyat iborasi qo’llanila boshladi. Zamonaviy G‘arb madaniyatining tobora keng tarqalishi o‘z-o‘zidan milliy urf-odat va an’analarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqotimiz davomida ushbu muammolarning yoshlar tarbiyasiga ta’sirini tahlil qilish va respondentlarning bu boradagi fikrlarini o‘rganish maqsadida “Yoshlarning qadriyatlarga munosabatini aniqlovchi qisqa so‘rovnomasi” ishlab chiqildi.

Mazkur so‘rovnomada keltirilgan “Yosh avlodning G‘arb madaniyati va uning o‘ziga xos “qadriyatlari” ta’siriga berilib ketishi sizningcha qanchalik to‘gri?” degan savolga respondentlarning bergen javoblarini quyidagi rasmida aks ettiramiz. (1-rasmga qarang).




1-rasm.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi savolga 54% respondent “Umuman to‘gri emas”, 34% respondent “Zamon bilan hamnafas bo‘lish kerak”, 12% respondent “Aniq bir nima deyishim qiyin” – deb javob berishgan.

Bu javoblardan afsuski salbiy jihatlarning ham borligini ko‘rishimiz mumkin.

Xuddi shu respondentlardan “Sizningcha milliy qadriyatlarni globallashuv jarayonining salbiy ta’sirlaridan saqlash uchun nima qilish kerak?” – degan savolga berilgan javoblardan quyidagi rasm orqali xulosaga kelish mumkin. (2-rasmga qarang).



2-rasm.

Rasmdan xulosa shuki, 28% respondent “Qadriyatlarni asrab-avaylash kerak”, 30% respondent “Ma’naviy immunitetni shakllantirish kerak”, 32% respondent “Ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo'yish kerak”, 10% “Buning iloji yo‘q” – deb javob berishgan.

Afsuski, ushbu javoblarda ham salbiy jihatlarning mayjudligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Globallashuv jarayonlarining bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlargaga salbiy ta’sirini inobatga olgan holda rus olimi V.L.Inozemsev shunday yozadi: “Globallashuv, aslini olganda, ko‘klarga ko‘tarib maqtalayotgan “umuminsoniy qadriyatlargaga tayanuvchi yagona tamaddunning shakllanish jarayonini emas, balki mutlaqo o‘zga holatni – jamiyatning “g‘arbona” modelining ekspansiyasini va dunyoning ana shu modelga moslashishini ifodalaydi. Jahondagi ko‘plab olimlar tomonidan “axborot neokolonializmi” “axborot urushlari”, “madaniy imperializm”, “madaniy gegemoniya”, “axborot ekspansiyasi” kabi atamalarning tez-tez qo‘llanilayotgani bejiz emas.

Demak, bu jarayonni biz madaniyatning yemirilishi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning yo‘qqa shiqishi, umuman qadriyatlarning parchalanishi deyishimiz mumkin.

Amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy sharhlovchi P.J.Byukenen “G‘arbning halokati” kitobida o‘z yurtining (va umuman G‘arb dunyosining) tanazzulini avvalo, madaniyatning yemirilayotgani, azaliy urf-odatlarning yo‘qolayotgani, asrlar davomida e’zozlab kelingan qadriyatlarning toptalayotgani bilan bog‘laydi va bunday ishlarning tepasida turgan “madaniy inqilobchilar”ni “zamonamiz tolibonlari” deb ataydi.

Haqiqatdan ham buni buggingi kunda G‘arb dunyosida azaliy qadriyat sifatida shakllangan va e’zozlanib kelingan oila qadriyati misolida ham ko‘rishimiz mumkin. G‘arb mamlakatlarida o‘tgan asrning boshlarida feminizm g‘oyasiga urg‘u berila boshladgi va bu g‘oya XXI asr boshlariga kelib g‘oyat kuchli ijtimoiy harakatga aylandi. Masalan, ashaddiy feminist ayollardan biri Sh.Kronin «Juish World Revyu» jurnalining 2000-yil fevral sonida chop etilgan maqolasida oila-nikoh masalasi haqida to‘xtalib, bunday deb yozadi: «Nikoh bu – qullikning bir shaklidir. Shunday ekan, ayollar harakati ana shu institutga qarshi yo‘naltirilishi zarur. Negaki, nikoh barham topmagan jamiyatda ayollarning ozod etilishiga umid qilish xomxayoldir».

Afsuski, shunga o‘xhash g‘oyalarning targ‘ib etilishi natijasida “oila” qadriyati g‘arb dunyosida inqirozga yuz tutgan, aynan bugungi kunda barcha dinlarda qoralangan, ma’naviy-axloqiy qarashlarga, umuminsoniy qadriyatlarga zid keluvchi oilaning noan’anaviy shakllari g‘arb dunyosida paydo bo‘lmoqda va keng tarqalmoqda.

So‘nggi yillarda jahon hamjamiatining turli xalqlarning nafaqat moddiy-madaniy yodgorliklarini saqlash, balki ularning milliy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari kabi nomoddiy madaniyatini ham asrab-avaylash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratishi bejiz emas, albatta.

Dunyoda xalq va millat borki ularning o‘ziga xos ma’naviy olami ham mayjud. Ana shu ma’naviy olam o‘zida ijtimoiy, axloqiy, estetik, ruhiy kabi bir qator ideallardan tashkil topadi va ular birlashib ma’lum bir xalqning qadriyatlar tizimini o‘zida aks ettiradi. Insoniyat ongli mavjudot sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashi, ajdodlardan meros kelayotgan madaniy-ma’naviy ildizlarini saqlab, ularni o‘zidan keyingi avlodlarga yetkazib berishga intilgan. Afsuski, g‘arb libosidagi ommaviy madaniyat intervensiysi yuz berayotgan, asl umuminsoniy qadriyatlarga zid keluvchi, tuban qadriyatlarning har qanday ko‘rinishdagi g‘oyalari keng tarqalayotgan hozirgi kunda ushbu qadriyat omilining o‘rni nihoyatta katta ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo‘li uchun ishlab chiqilgan va bugungi kunda bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinayotgan taraqqiyot modellarimizda, xususan, “Taraqqiyot strategiyasi” va “O‘zbekiston – 2030” strategiyalarida ham aynan qadriyatlar omiliga benihoyat katta ahamiyat qaratilmoqda.

Jamiyatda milliy tarbiya an’analari va qadriyatlarini tiklash, oila institutini mustahkamlash, rivojlantirish, zamonaviy oila ma’naviyati mezonlarini joriy etishga qaratilgan fundamental natijalarini hayotga tatbiq etish bugungi kunning asosiy vazifasi sifatida nomoyon bo‘lmoqda.

Shu sababdan ham davlatimizda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi” qabul qilindi. Konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy-ma’naviy muhitimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish qadriyatlarimizni saqlash, unga zid bo‘lgan turli ko‘rinishdagi ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlar ongida muayyan darajada immunitetni shakllantirish, yoshlarning ongida Vatanga, milliy urf-odat va an’analalarimizga sadoqat ruhini shakllantirish, komil insonni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishdan iboratdir.

Har qanday qadriyat o‘zining uzoq tarixiy o‘tmishiga, ijtimoiy falsafiy asoslariga ega. Qadriyatlarning vujudga kelishi kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, insonlar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. Ma’lum nuqtayi nazardan inson qadriyatlarni, qadriyatlar tizimining muayyan qonunlarini yaratdi, endi qadriyat xususiyatlari insonni inson sifatida namoyon qilib turmoqda. Zero, qadriyatsiz inson, o‘zining insonlik xususiyatidan ham ayrıldi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 124 bet.
2. Nazarov.Q. “Aksiologiya” (Qadriyatlar falsafasi). – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyat” nashriyoti, 2011. 384 bet.
3. Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasuni tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sون Qarori, 31.12.2019.